



STUDY OF ISSUES OF COMMUNICATION CULTURE IN HERMENEUTIC THEORIES

Sevara Mamurovna Botirova

Head of the Department of Philosophy and Historical Sciences, NamDPI
 Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences, Associate Professor
sevarabotirova783@gmail.com
 Tashkent, Uzbekiston

ABOUT ARTICLE

Key words: hermeneutics, communication culture, hermeneutic analysis, social communication, intercultural communication, context, philosophical theory.

Received: 14.01.26

Accepted: 15.01.26

Published: 16.01.26

Abstract: This article analyzes issues of communication culture within the framework of hermeneutic philosophical theories. The meaning and essence of the communication process, its connection with culture, and its in-depth study through a hermeneutic approach are discussed. The article shows the basic principles of hermeneutics, especially their importance in understanding the text, context, and social communication.

GERMENEVTIK NAZARIYALARDA MULOQOT MADANIYATIGA OID MASALALARNING O'RGANILISHI

Sevara Mamurovna Botirova

NamDPI falsafiy va tarixiy fanlar kafedrasini mudiri
 Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
sevarabotirova783@gmail.com
 Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: germeneytika, muloqot madaniyati, germeneytik tahlil, ijtimoiy muloqot, madaniyatlararo kommunikatsiya, kontekst, falsafiy nazariya.

Annotatsiy: Mazkur maqolada germeneytik falsafiy nazariyalar doirasida muloqot madaniyatiga oid masalalar tahlil qilinadi. Muloqot jarayonining ma'nosi va mohiyati, madaniyat bilan bog'liqligi hamda uning germeneytik yondashuv orqali chuqur o'rganilishi muhokama qilinadi. Maqolada germeneytikaning asosiy tamoyillari, ayniqsa matnni, kontekstni va ijtimoiy muloqotni tushinishdagi ahamiyati ko'rsatib o'tiladi.

ИЗУЧЕНИЕ ВОПРОСОВ КОММУНИКАЦИОННОЙ КУЛЬТУРЫ В ГЕРМЕНЕВТИЧЕСКИХ ТЕОРИЯХ

Севара Мамуровна Ботирова

Заведующая кафедрой философских и исторических наук НамДПИ

Доктор философии (PhD) по педагогическим наукам, доцент

sevarabotirova783@gmail.com

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: герменевтика, коммуникационная культура, герменевтический анализ, социальная коммуникация, межкультурная коммуникация, контекст, философская теория.	Аннотация: В данной статье анализируются вопросы коммуникационной культуры в рамках герменевтических философских теорий. Рассматриваются смысл и сущность коммуникационного процесса, его связь с культурой и углубленное изучение с помощью герменевтического подхода. В статье показаны основные принципы герменевтики, особенно их важность для понимания текста, контекста и социальной коммуникации.
--	---

Kirish. Germenevtik falsafiy nazariyalar, muloqot madaniyatida yuzaga keladigan tushunmovchiliklarni kamaytirish va insonlararo muloqotni samarali tashkil etish uchun nazariy asos yaratadi. Shuning uchun ham, zamonaviy ilm-fan doirasida germenevtika va muloqot madaniyati o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganish katta ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu maqola ana shu masalalarni yoritishga, germenevtik yondashuv asosida muloqot madaniyatining mazmuni va xususiyatlarini tahlil qilishga bag'ishlangan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda asosan nazariy tahliliy metodlaridan foydalanilgan. Asosiy o'rinda germenevtik yondashuv turadi, bu matnlarni va muloqot jarayonlarini kontekstual va interpretativ tahlil qilish imkonini beradi. Shuningdek, taqqoslash va tanqidiy tahlil usullari qo'llanilib, germenevtik nazariyalar va muloqot madaniyati o'rtasidagi bog'liqlik o'rganilgan. Nazariy bilimlardan olingan xulosalar etnopsixologik va ijtimoiy-madaniy muhitlar bilan solishtirib ko'rilgan.

Adabiyotlar tahlili. Mavzuni o'rganishda asosan G'arb davlatlarining falsafiy qarashlarida ifodalangan mavzu bo'yicha ilmiy izlanishlarga tayanilgan. Jumladan, V.Diltey, G.Gadamer, X.Xaydeggerlarning ilmiy izlanishlari faol o'rganilgan. Mavzuga oid manbalarni o'rganish asosidagi natijalar falsafiy nazariyalar asosida tizimlashtirilgan va muloqot madaniyatining rivojlanish yo'nalishlari bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Zamonaviy dunyoda muloqot madaniyati jamiyatlarning ijtimoiy, madaniy va ma'naviy hayotida muhim o'rin egallaydi. Muloqot faqatgina axborot almashinuvi emas, balki insonlarning o'zaro tushunishi, ularning qadriyatlari, e'tiqodlari va madaniy kontekstlari orqali yuzaga keladigan murakkab jarayon hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, muloqot madaniyatini chuqur va tizimli o'rganish falsafiy yondashuvlarni, xususan, hermenevtik nazariyalarni talab qiladi. Tadqiqotchi Jens Zimmerman bu borada munasabat bildirib, "Zarur bo'lganda, hermenevtika tushunish va muloqot san'atini ham o'z ichiga olishi mumkin." [1] deb e'tirof etgan edi.

Germenevtika - matn, sun'iy yoki tabiiy til orqali biror mazmunni tushunish va talqin qilish san'ati sifatida ma'lum bo'lib, u muloqot jarayonining ijtimoiy muloqotdagi xususiyatlarini ochib beradi. Hermenevtik falsafa muloqot jarayonini tushunish va uning mazmuniy qatlamlarini ochish borasida o'zining chuqur nazariy asoslarini yaratgan. Bu nazariyalar muloqot madaniyatini ilmiy jihatdan tadqiq etishda yondashuvlarning yangi yondashuvlarini ochib beradi. Hermenevtika so'zining o'zi yunoncha "hermeneuein" – "tushuntirish", "talqin qilish" degan ma'noga ega bo'lib, matnni yoki inson faoliyatining boshqa ko'rinishlarini, shu jumladan muloqotni talqin qilish jarayoniga qaratilgan.

Shu bilan birga, hermenevtik nazariyalar muloqot madaniyatini zamonaviy globalizatsiya sharoitida yuzaga kelgan muammolar bilan bog'liq holatda ham tahlil qiladi. Global axborot maydonida turli madaniyatlararo muloqot jarayonlarining o'ziga xosligi, talqin va tushunishdagi farqlar dolzarbligini oshiradi. Hermenevtik yondashuv orqali bu muammo – dialog va talqin muammosi sifatida o'rganilib, har bir ishtirokchining dunyoqarashi va madaniy kontekstiga hurmat bilan yondoshish muhimligi ta'kidlanadi. Natijada muloqot madaniyati subyektlarning bir-birini anglashdagi murakkab jarayon sifatida ko'riladi.

Muloqot madaniyati insonlar orasidagi axborot almashinuvidan ancha kengroq tushuncha ekanligini hermenevtika asoslaydi. Sh. Jabborovning "Sharq falsafiy hermenevtikasi" nomli maqolasida hermenevtika so'zning ma'naviy mohiyatini anglash jarayoni sifatida talqin qilinadi. [2] Bu – kommunikatsiya shakllari, tillarning vazifalari, madaniy belgilar, ijtimoiy odatlar, hamda muloqot jarayonida yuzaga keladigan qadriyatlar va e'tiqodlar tizimidir. Shu bois, muloqotni faqatgina verbal (so'z orqali) yoki verbal bo'lmagan signallar doirasida ko'rish yetarli emas, balki ularni chuqur madaniy va falsafiy kontekstda yondoshuv talab qiladi.

Germenevtik yondashuvga ko'ra, har bir muloqot muhitida talqin jarayoni markaziy rol o'ynaydi. Martin Haydegger va Gadamer tomonidan rivojlantirilgan hermenevtik falsafa muloqotni ikki subyekt o'rtasidagi "gorizontal" va "vertikal" aloqalar tizimi sifatida ko'radi. Bu yondashuv shuni ko'rsatadiki, muloqotda ishtirokchilar o'z oldidagi matn yoki suhbatni nafaqat

yuzaki ma'noda, balki uning tarixiy, madaniy va subyektiv qatlamlari asosida tushunishga harakat qiladi. Hans-Georg Gadamer muloqotni "tushunish jarayoni" sifatida talqin etib, "muloqotda inson o'zini boshqasida topadi, bu jarayon ijtimoiy uyg'unlikning madaniy asosi hisoblanadi" [3] deb yozadi.

Germenevtik falsafaning muloqot madaniyatini o'rganishga taqdim etgan ilmiy yondashuvlari – bular tushunish, talqin, dialog va madaniyatlararo muloqot kabi masalalarni tizimli tarzda tahlil qilishga imkon beradi. Bu nazariyalar yordamida muloqot madaniyati nafaqat til va axborot almashinuvi qadriyatlari bilan cheklanmay, balki insonlar orasidagi chuqur madaniy va ma'naviy aloqalar tizimi sifatida o'rganiladi. Shunday qilib, germenevtik nazariyalar muloqot madaniyatini global va milliy madaniyat kontekstida yanada samarali va mazmunli amalga oshirishga ilmiy asos yaratmoqda.

Germenevtikaning eng muhim tamoyillaridan biri – oldindan qabul qilingan nazariy qarashlar rolidir. Muloqot jarayonida har bir ishtirokchi avvaldan shakllangan bilish, tajriba va madaniy kodlar asosida kiradi, bu esa yetarlicha dinamika va o'zaro ta'sir talab qiladi. Shu nuqtai nazardan, muloqot madaniyatida yuzaga keladigan har qanday tushunmovchilik va to'siqlar ushbu oldindan qabul qilingan qarorlarning mos kelmasligidan kelib chiqishi mumkin. Ushbu masalalar pirovardida Gadamer qarashlari asosida sotsiologik germenevtika sohasining paydo bo'lishiga sabab bo'ldi. Sotsiologiyadagi germenevtika ham Gadamerdan kuchli ta'sirlangan. [4] Shunga ko'ra, muloqotni samarali tashkil etish uchun ishtirokchilar bir-birining madaniy kodlarini va kontekstini chuqur talqin qilishi talab etiladi.

Muhokama va natijalar. Germenevtika falsafasi ayniqsa Martin Haydeggerning fenomenologik yondashuvi markazida o'zining konseptual chuqurligi bilan muloqot madaniyatining o'rganilishiga noyob ilmiy asos yaratadi. Haydeggerning "Dasein" tushunchasiga asoslanib, muloqot jarayoni insonning dunyodagi o'zligining ko'rinishi va uni talqin qilish mexanizmlarini anglashda asosiy rol o'ynaydi. Shu nuqtai nazardan, muloqot madaniyati faqatgina tashqi kommunikatsiya yoki axborot uzatilishi emas, balki insonlarning mavjudlik tafakkuri, dunyoqarashi va mavjudlik bilan munosabati sifatida tahlil qilinadi.

Haydeggerning fikricha, inson mavjudligi o'zini dunyo ichida, o'zining burg'ilangan va tarixiy asoslarga ega bo'lgan madaniy muhitda namoyon qiladi. Bu holatda muloqot – bu shunchaki so'zlashuv emas, balki insonning borligi, o'zini ifoda etishi va boshqalar bilan mavjudlikni ulashish jarayonidir. Muloqot madaniyati bevosita ushbu mavjudlik shakllaridan kelib chiqib, insonning dunyo bilan bo'lgan o'ziga xos aloqalarining namoyishidir.

Haydegger "til" kontseptsiyasini muloqotning markaziy elementi sifatida ko'rsatadi. Til muloqot amaliyotining emas, balki mavjudlikning eng asosiy ifodasi hisoblanadi. Muloqot

madaniyatini o'rganishda tilning shunday roli tahlil qilinadi: til insonning dunyoni anglash vositasi, uning o'zligini quruvchi vositadir. Bu esa, o'z navbatida, muloqot jarayonida yuzaga keladigan har qanday tushunmovchilik yoki madaniy ziddiyatlarning ildizlariga chuqur nazar solishga imkon beradi.

Vilgelm Dilteyning asarlari Xaydeggerning "faktual hayot germevntikasi"ni rivojlantirish bo'yicha dastlabki loyihasini va uning fenomenologiyani germevntik o'zgartirishini shakllantirdi. [5] Haydeggerning terminologiyasida "Vorhandenheit" va "Zuhandenheit" tushunchalari muloqot madaniyatida talqin uchun muhimdir. "Vorhandenheit" – buyumiy va tashqi mavjudlikni bildirsa, "Zuhandenheit" esa insonning o'z faoliyatiga xizmat qiluvchi va kontekstual ma'nodagi mavjudlikni anglatadi. Muloqot jarayonida ishtirokchilarning aloqasi ham shunday ikki qirrali mavjudlik shaklida amalga oshadi: muloqotga kirishgan insonlar nafaqat obyektiv axborot almashadilar, balki o'zlarining madaniy va ekzistensial tajribalarini bir-biriga "Zuhandenheit" holatida taqdim etadilar. Shu tariqa, muloqot madaniyati qadriyatlar, ma'nolar va sub'yektivlik darajasida shakllanadi.

Haydeggerning germevntik yondashuvi shuningdek, muloqotni vaqt va tarix bilan chambarchas bog'langan jarayon sifatida ko'radi. Inson muloqoti har doim o'z tarixiy va madaniy kontekstida yuz beradi, bu esa muloqot madaniyatining multidimensional tabiatini yanada chuqurroq anglash imkonini yaratadi. Muloqotda ishtirokchilar bir-birining tarixiy holatini, avvalgi madaniy jarayonlarni talqin qilish orqali yangi ma'nolar yaratadilar. Shu nuqta nazardan muloqot madaniyati tarixi, dialektikasi va uning rivojlanishi germevntikaning markaziy masalalaridan biridir.

Bundan tashqari, Haydegger muloqotni insonning "Boshqalar bilan birga bo'lish" tushunchasi orqali yoritadi. Insonga xos ijtimoiylik va boshqalar bilan hamda ularning madaniy tajribasi bilan uzluksiz aloqada bo'lish qobiliyati muloqotni shunchaki axborot almashinuvidan ko'ra mustahkamroq, mavjudlikni asosiy o'lchoviga aylantiradi. Shu jihatdan muloqot madaniyati insonlarning o'zligini tan olish va boshqalarni o'zi bilan teng darajada ko'rish tamoyilida shakllanadi. Martin Haydeggerning germevntik nazariyalari asosida muloqot madaniyatini o'rganish insonning ekzistensial mavjudligi, til orqali dunyoni anglashi va boshqalar bilan munosabatlari shakllanishining murakkab jarayoni sifatida ko'riladi.

Bu yondashuv muloqotni faqat tashqi kommunikatsiya deb emas, balki madaniyat va tarixiy kontekst doirasida insonlikning chuqur ifodasi deb talqin etishga imkon beradi. Shunday qilib, muloqot madaniyati tahlilida Haydegger germevntikasi til, mavjudlik, tarix va ijtimoiy aloqalar kabi omillarni hisobga olgan holda murakkab butunlik sifatida qaraladi. Bu esa

zamonaviy kommunikatsiya nazariyalari va madaniyatshunoslikda yangi falsafiy yondashuvlarni amalga oshirishga xizmat qiladi.

Germenevtika yozma, og‘zaki va og‘zaki bo‘lmagan muloqotni o‘z ichiga olgan kengroq fandır. [6] Hermenevtik yondashuv muloqot madaniyatining pluralistik tabiatini e‘tirof etadi. Bu yondashuv orqali muloqot jarayoni yagona universal modeldan ko‘ra, ko‘p qirrali va har xil madaniyatlarda o‘ziga xos kechadi. Shu sababli, muloqot madaniyatini o‘rganish paytida mahalliy va global madaniyatlar, ularning o‘zaro ta’siri, shuningdek, til va noverbal signallar mazmuni ko‘p qirrali tahlil qilinadi. Gadamer ta’kidlaganidek, muloqot jarayonida “gorizontlarning birlashishi” – ikki subyektning dunyoqarashlari o‘rtasida dialog yaratish jarayoni vujudga keladi. Bu holat muloqot madaniyatining rivojlanishida muhim ahamiyatga ega bo‘lib, madaniyatlararo tushunish va hamkorlikni kuchaytiradi.

Xulosa. Hermenevtik nazariyalar doirasida muloqot madaniyatiga oid masalalarning o‘rganilishi insoniy mavjudlik va tilning ontologik mohiyatini tushunish bilan chambarchas bog‘liqdir. Martin Haydeggerning qarashlari asosida, muloqot nafaqat axborot uzatish jarayoni, balki insonning dunyo bilan bo‘lgan mavjudlik munosabatining ifodasi sifatida ko‘riladi. Uning qarashlari orqali muloqot madaniyati insonning o‘ziga va boshqalar bilan mavjudlikda bo‘lishi, haqiqatni ochish jarayoni sifatida talqin qilinadi. Shunday qilib, hermenevtika nuqtai nazaridan muloqot madaniyati insonning mavjudlikdan kelib chiqadigan ma’naviy-axloqiy mas’uliyatini, o‘zlikni anglash va boshqa bilan o‘ziga xos aloqa tarzini shakllantirish masalasini o‘rganadi. Bu yondashuv madaniy dialog va tushunishni chuqurlashtirishga, shuningdek, muloqot jarayonining ontologik asoslarini yanada kengroq tahlil qilishga imkon yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Zimmermann, Jens (2015). Hermeneutics: A Very Short Introduction. Oxford University Press. p. 2. ISBN 9780199685356.
2. Жабборов Ш. Шарқ фалсафий герменевтикаси // Фалсафа ва ҳуқуқ. – Тошкент, 2004. – №1. – Б. 27–29.
3. Гадамер, Г.-Г. Истина и метод. — Москва: Прогресс, 1988. — б. 314.
4. Charles A. Pressler, Fabio B. Dasilva, Sociology and Interpretation: From Weber to Habermas, SUNY Press, 1996, p. 168.
5. Rockmore, Tom (2003). "Dilthey and Historical Reason". Revue Internationale de Philosophie. 226 (4): 477–494.
6. The Routledge Companion to Philosophy in Organization Studies, Routledge, 2015, p. 113.